O'zbek folklorshunosligida pari obrazining poetik tabiatiga oid muhim izohlar A.Mo'minova tomonidan berilgan. Tadqiqotchining fikricha, parilar dastlab mifologik xaloskor obraz sifatida maydonga chiqqan bo'lib, ular odamlarni yovuz kuchlardan, jumladan, devlar, ajdarholar va boshqa demonik mavjudotlardan qutqaruvchi g'ayritabiiy mavjudotlar sifatida tasvirlangan. Parilar ko'pincha antromorfik mavjudotlar tarzida taqdim etiladi, bu esa ularning estetik obraz sifatida xalq ongida yanada hayotiy tus olishiga sabab bo'lgan. Sh. Maxmaraimova *pari(f- pari) so'zi* turkiy xalqlar mifologiyasida mavjud bo'lgan *dev, ajdaho, alvasti, yalmog'iz kampir* obrazlaridan keskin farq qilishini ta'kidlab, bu so'zdagi ijobiy emotsional-eksperessiv bo'yoq aslida paridagi ayol semasi mazkur obraz etimologiyasi bilan zich assotsiatsiyasiga kirishganligidan yuzaga chiqqan, holbuki, pari va ayol tushunchasi o'zaro go'zal, tengsiz, sirli ma'no ko'lamida uyg'unlasha oladi, deya izohlaydi[1]. O'rta Osiyo xalqlari mifologik sistemalarida pari obrazining demonologik aspektlari ham mavjud bo'lib, ular maxsus makon, ya'ni Ko'hiqof tog'lari yaqinidagi Eram bog'ida yashovchi, mustaqil tuzumga, shoh va saltanatga ega bo'lgan maxluqlar sifatida tasvirlanadi. Rivoyatlarga ko'ra, parilar saltanati devlar tomonidan qo'riqlanadi, bu esa pari va dev obrazlari o'rtasida ziddiyatli, biroq semantik jihatdan bir-birini to'ldiruvchi oppozitsiyani yuzaga keltiradi[2]. O'zbek xalq ertaklari poetikasida parilar odatda *aql-zakovat, go'zallik, donishmandlik, latofat* va *sehrli imkoniyatlar* bilan ajralib turuvchi ayol obrazlari sifatida taqdim etiladi. G. Nazarova o'z tadqiqotlarida «ingliz va o'zbek og'zaki adabiyotida parilar eng qadimiy mifologik obraz sifatida talqin qilinishini ta'kidlab o'tadi[3]. Ular metamorfik xususiyatga ega bo'lib, zarurat tug'ilganda turli qiyofalarga kira oladilar. Pari obrazining narativ funksiyasi qahramonlarga adolatli maslahatlar berish, ularni sinovlardan muvaffaqiyatli o'tkazish va syujet rivojiga mo'jizaviy tarzda ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq. Ertaklarda pari obrazining tasviri nafaqat estetik va mifologik funksiyalarni, balki ***ijtimoiy-axloqiy*** va ***ramziy-ma'naviy*** vazifalarni ham bajaradi. Jumladan, «Oypari», «Guliqahqah pari», «Xurshid bilan Laylo», «Besh qiz», «Odilbek bilan Xurram»

[1] Махмараимова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафораларнинг когнитив аспекти: Филол. фан. фалс. док. ...дисс. – Қарши, 2018. – Б. 147.

[2] Nurmonov F. Xizr obrazi genezisiga doir ayrim mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. – 2004. №2. – B. 51-54.

[3] Назарова Г. Инглиз ва ўзбек адабиётида мифологик образлар тизими, генезиси, бадиий вазифалари: Филол. фан. фалс. док. ...дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – Б.15.

kabi ertaklar poetikasida pari personaji ko‘pincha ideal ayol timsoli sifatida talqin qilinadi. Ushbu personajlar o‘z tabiatida nafaqat go‘zallik va latofatni, balki aql-idrok, sadoqat, jasorat, mas’uliyat va fidoyilik kabi insoniy-axloqiy qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Pari obrazining bu kabi funksional kengayishi uning arxetipik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu personajlar o‘zbek xalq dunyoqarashida ideal inson, ayniqsa, ideal ayol siymosining ifodasiga aylangan. Ertaklarda parilar qahramonlikning faol subyekti sifatida erkak qahramonlar bilan tengma-teng jangovar vaziyatlarda qatnashadi. Bu jihatlar pari obrazining passiv emas, balki faol, qaror qabul qiluvchi, harakatga ta’sir ko‘rsatuvchi kuch ekanligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, pari obrazi ertakda bir nechta vazifani bajaradi:



1-rasm. **O‘zbek xalq ertaklarida pari obrazining asosiy vazifalari**

Pari qahramon bilan bir safda turib, uning zafariga hissa qo‘shadi. Bu holat o‘zbek xalq ertaklarida ayol siymosining ijtimoiy va axloqiy maqomi yuksak darajada e’tirof etilganini anglatadi. Shuningdek, parilar obrazi ko‘p hollarda ramziy darajada ham faol ishlatiladi. Ular orqali xalq ertaklarida ideal hayot tarzi, komil jamiyatga xos xatti-harakatlar, insoniy fazilatlar ifodalanadi. Bunday obrazlar estetik ideallashuv natijasida inson turmushining orzu qilingan, badiiy timsollashtirilgan modelini yaratadi. Buning yorqin namunasini «Xurshid va Laylo»**,** «Besh qiz», «**Oypari**» kabi ertaklarda ko‘rishimiz mumkin.

Har bir xalqning ertak janrida ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi abadiy qarama-qarshilik asosiy g‘oyaviy hamda syujet markazi sifatida namoyon bo‘ladi. Ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasi esa ertak janrining asosiy ideyaviy tamoyili va badiiy-kompozitsion asosini tashkil etadi. Bu qarama-qarshilik orqali nafaqat voqealar rivoji harakatga keladi, balki ertakning tarbiyaviy va ma’naviy maqsadlari ham amalga oshiriladi. Mana shunday qarama-qarshi kuchlarning badiiy aks ettirilishida yovuzlik timsoli sifatida ko‘pincha yalmog‘iz obrazi ishtirok etadi. U xalq og‘zaki ijodida ayol jinsiga mansub, g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan, yovuz niyatli, odamlarga zarar yetkazuvchi mavjudot sifatida tasvirlanadi. Yalmog‘iz obrazi ***salbiy mifologemalar*** qatoriga kiradi va u yordamida xalqning yovuzlik, xavf, zulm kabi tushunchalarga munosabati obrazli tarzda ifodalanadi.



2-rasm. **Yalmog‘iz obrazining xalq ertaklaridagi ifodasi**

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ***yalmog‘iz*** yoki ***Baba-yaga*** slavyan mifologiyasi va slavyan xalqlari folklorining qahramoni. Sehrli narsalarni ishlatadigan va sehrli kuchga ega bo‘lgan salbiy obraz. Bir qator ertaklarda bu obraz jodugarga qiyoslanadi. Aksariyat hollarda salbiy xarakterli obraz sifatida talqin qilinsa-da, ba’zida qahramonlarning yordamchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Yalmog‘iz kampir (Baba yaga) haqida yozma eslatma ingliz sayohatchisi D.Fletcherning «Rossiya davlati to‘g‘risida» kitobida (1588) mavjud bo‘lib, u «oltin yoki yage-baba» butiga sig‘inish haqida o‘qiydi, ammo Perm viloyatiga Samoyedlarga yetib kelganida, D.Fletcher bu «shunchaki ertak» ekanligini aniqlaydi. O‘zbek xalq ertaklarida arxaik mifologik personajlardan biri sifatida Yalmog‘iz kampir obrazi alohida o‘rin egallaydi. «Bunyod polvon», «Olmos botir», «Ermana mergan», «Semurg», «Non qudrati» kabi ertaklarda mazkur obraz odatda qahramonlarga to‘sqinlik qiluvchi, ularni sinovga soluvchi yoki ularning hayoti ustidan tahdidli nazorat o‘rnatuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu obrazga xos nutq aktlaridan biri – «Gar saloming bo‘lmaganda, ikki yamlab bir yutardim» degan tahdidli ifoda – xalq og‘zaki ijodining poetik tasavvurida yalmog‘iz kampirning semantik va kommunikativ maqomini yoritishda muhim vosita hisoblanadi. Folklorshunos olimlarning fikricha, bu jumla mazmunan kuch, g‘azab va yirtqichlik bilan bog‘liq bo‘lib, aynan Yalmog‘iz kampir obraziga mansubdir. Jumla tarkibidagi «yamlab yutmoq» ifodasi orqali bu personajning zo‘ravonlik va g‘ayritabiiy iste’mol kuchiga ega ekanligi tasvirlanadi. Bu holat orqali xalq tafakkuridagi qadimiy yovuzlik kodlari, ya’ni insoniyatga tahdid soluvchi mavhum kuchlar timsollashtiriladi. Etimologik jihatdan «Yalmog‘iz» termini haqida bir qancha ilmiy yondashuvlar mavjud. M.Jo‘rayevning tahlillarida bu atama ikki asosiy morfemadan – «yal» (yoki «al») va «mog‘iz» qismlaridan tashkil topgani ta’kidlanadi. «Yal»/»al» komponenti qadimgi turk-mo‘g‘ul mifologiyasidagi «Alxa» yoki «Alaxa» nomli yovuz ruhlar bilan bog‘lanadi. Bu yondashuv «alvasti», «alpar», «aldamchi» kabi so‘zlardagi «al» morfemasining qadimgi negativ semantik yuk bilan shakllanganini ko‘rsatadi. Bu esa «yal»/»al» morfemasining demonologik asosga ega bo‘lgan qadimiy ildizlardan biri ekanligiga dalildir.

G.N.Potaninning tadqiqotlariga ko‘ra, yalmog‘iz va unga semantik jihatdan yaqin bo‘lgan ***Jelbegan, Talbegan, Yelbegan, Jolmous*** kabi obrazlar turkiy tillarda «ilon» ma’nosini anglatuvchi «jilon» yoki «chilan» leksemalari bilan genetik jihatdan bog‘liqdir. Bu yondashuv yalmog‘iz kampir obrazining zoomorfik ildizlar bilan bog‘langanligidan darak beradi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi «yamlamoq» yoki «yalmamoq» fe’llarining yutish, yutib yuborish ma’nolarini anglatishi, «Yalmog‘iz» atamasining semantik asosida iste’mol jarayoni bilan bog‘liq yirtqichlik harakati mujassam ekanini ko‘rsatadi.

E’tiborlisi shundaki, xalq ertaklarida yalmog‘iz kampirning xarakteri mutlaq salbiy emas. Ba’zi variantlarda u ambivalent, ya’ni ikki tomonlama xarakterga ega obraz sifatida tasvirlanadi: bir tomondan: ayyor, hiylagar, qo‘rqinchli va dushman obrazida, boshqa tomondan esa: qahramonning sinovdan o‘tishiga sabab bo‘luvchi, ba’zan yordam beruvchi yoki muhim maslahatlar beruvchi personaj sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday tasvirlar yalmog‘iz kampir obrazining mifopoetik va psixologik ko‘p qatlamli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq ertaklarida eng ko‘p uchraydigan salbiy obrazlardan biri ajdarho obrazidir. ***Ajdarho*** yovuz kuchlarning timsoli sifatida namoyon bo‘lib, epik syujetda qahramonlik sarguzashtlarining markaziy to‘qnashuvlarini vujudga keltiradi. Ushbu obraz xalq ongida xavf, kuch va sinovlarning umumlashgan modeli sifatida shakllanib, ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasidagi dramatik qarama-qarshilikni ifodalovchi asosiy vositadir. Ajdarhoga qarshi kurashish esa, qahramonning jasorat, irodaviy bardosh va ma’naviy ustunligini namoyish etuvchi semantik mezon sifatida qaraladi. Ertak voqealarining dinamikasida ajdarho timsoli tilsimli va sinovli bosqich sifatida ajralib turadi. O‘zbek xalqi lingvomadaniyatida ajdarho og‘zidan o‘t purkab, dahshatli g‘ayritabiiy kuch sohibi sifatida talqin qilinuvchi bahaybat va yovuz afsonaviy mavjudot sifatida akslanadi. Manbalar, xususan, «Ajoyib ul-maxluqot» asarida, ajdarning uzunligi uch gaz (taxminan 2,7 metr) bo‘lib, u uch yuz yildan ortiq umr ko‘radigan va odatdagi ilon shaklidan o‘zgarib ajdarhoga aylanuvchi timsol sifatida tasvirlanadi. U o‘zining ontologik mohiyati jihatidan ilonsifat, destruktiv va aksial obraz bo‘lib, mifologik funksiyalarda – vayronkor kuch, xavf va sinov timsolidir. O‘rta Osiyo mifologik tafakkurida ajdarning arxetipik mohiyati yovuzlik, buzilish va antitezalik g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lib, bu obraz folkloriy va epik kontekstda odatda protagonistga qarshi turgan antagonist shaklida namoyon bo‘ladi. Ajdarning asosiy estetik vazifasi ***sinov maydonini yaratish, qahramonning botirligini sathma-sath ko‘rsatish***dir. Xalq og‘zaki ijodida hamda mumtoz adabiy merosda ajdarhoga qarshi kurash motivi qahramonlik ideologemasining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Masalan, «Tarixi anbiyo va hukamo»da Anush, «Tarixi mulki Ajam»da shoh Gushtosp, shuningdek Navoiy «Xamsa»sidagi Farhod va Bahrom Go‘r obrazlari ajdarho ustidan g‘alaba qozongan qahramonlar sifatida badiiy ifoda topgan.

Sharq mifologik konsepsiyasida ajdar timsoli ba’zan ilohiylashtirilgan holda talqin qilinib, ayniqsa, Xitoy an’anaviy madaniyatida suvlar, daryolar va yomg‘ir xudosining ramzi sifatida aks ettiriladi. Hozirgi kunda ham ajdar obrazi Xitoy madaniy marosimlarida faol ishlatilib, u ajdar raqslari, kiyim-boshlar va bayramona atributlar-

da o‘z ifodasini topadi. Tipologik jihatdan ajdar obrazini sinkretik personaj deb baholash mumkin, chunki u bir necha hayvonot a’zolarini birlashtirgan kompleks struktura sifatida tasvirlanadi: masalan, kallasi tuyaniki, bo‘yni ilonniki, tirnog‘i burgutniki, quloqlari sigirniki va h.k. Bu esa ajdarni totemik arxaik e’tiqodlar mahsuli sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday tasvir ertak matnlarida ham aynan qo‘llanadi hamda ertaklar poetikasida ajdarhoning mavjudligi g‘ayritabiiylik, tilsimlilik va dramatik to‘qnashuv elementlarini kuchaytiradi. Shu sababli, u nafaqat antagonistik obraz, balki voqealar rivojini harakatga keltiruvchi katalizator hamdir. Uning mavjudligi orqali qahramonning psixologik va axloqiy kamoloti sinovdan o‘tadi, bu esa xalq ertaklarining struktura va semantik tizimida ajdar timsolining markaziy rol o‘ynashiga sabab bo‘ladi. Aytish mumkinki, o‘zbek xalq ertaklarida yovuzlik, qonxo‘rlik timsoli bo‘lgan Ajdarho bosh qahramonga qarshi turadigan qora kuchlardan biri sifatida gavdalanadi. Misol sifatida quyidagi ertaklarni keltirish mumkin: «Toshqotgan ajdarho», «Qirq kuyov», «Qilichqora», «Ajdar qush» va boshqalar. Masalan, *Haligi ajdarho uni bir turtgan ekan, yiqilib tushibdi, ajdarho qulunni olgancha ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.* («Non qudrati» 281-b) Umuman olganda, ajdar obrazi o‘zbek xalq ertaklarida nafaqat antagonistik kuch sifatida, balki xalq ongining ezgulik va yovuzlik, kuch va zaiflik, sinov va mukofot o‘rtasidagi dialektik munosabatlarini badiiy ifoda etuvchi murakkab va mazmunli personaj sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalq e’tiqodlari va diniy tasavvurlar bevosita og‘zaki an’analarda, xususan, folklor janrlarida o‘z aksini topadi. Jumladan, o‘zbek xalq ertaklarida ham diniy-falsafiy dunyoqarashlar va mifologik elementlarning o‘zaro sintezi kuzatiladi. O‘rta Osiyoga Islom dinining kirib kelishi va bu dinga asoslangan qadriyatlarning mustahkamlanishi bevosita xalq ijodiyotiga, jumladan, ertak janrining shakllanishi va rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, bu jarayon jin obrazining folklordagi badiiy-funksional xarakterida yaqqol namoyon bo‘ladi. ***Jin*** obrazi islomiy-mifologik tasavvurlarga tayanib, o‘zbek xalq ertaklarida turli semantik vazifa bilan namoyon bo‘ladi. Islom manbalariga ko‘ra, jinlar aslida olovdan yaratilgan, shayton zurriyotidan bo‘lgan g‘ayritabiiy mavjudotlardir. «Jin» so‘zining etimologik ildizi arab tilidagi *janna* fe’lidan kelib chiqib, «yashirinmoq», «ko‘zdan to‘silmoq» ma’nolarini anglatadi. Shu bois ular inson ko‘ziga ko‘rinmaydigan, ammo mavjudligi e’tirof etilgan mavjudotlardir. Qur’oni Karimda jinlar haqida qirqqa yaqin oyat mavjud bo‘lib, ulardan ayrimlari alohida «Jin surasi»da jamlangan. Bu esa jinlar mavzusi nafaqat mifologik, balki diniy-ideologik kontekstda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Folkloristik kontekstdan qaralganda, jin obrazining o‘zbek xalq ertaklaridagi vazifasi ko‘p qirrali va murakkabdir. Jinlar ayrim ertaklarda antagonistik kuch sifatida yovuz niyatli, zarar yetkazuvchi, botir qahramonga g‘ov bo‘luvchi mavjudot sifatida tasvirlansa, boshqa ertaklarda u yordam beruvchi, muammolarni hal qiluvchi, aql-zakovat egasi, hatto murabbiy sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday ikkiyoqlama talqin jin obrazining folklorda dinamik, ko‘p funksiyali timsol sifatida qaror topganini ko‘rsatadi. Xususan, «Dehqon bilan jin», «Kenja o‘g‘il va jin» kabi ertaklarda jinlar ijobiy funksiyani bajaradi: ular qahramonning sinovdan o‘tishida, sodiqlik, sabr-toqat va aql-idrok orqali maqsadga erishishida vositachi obraz vazifasini bajaradi. Bu kabi siymolar ertaklarda axloqiy-estetik g‘oyani, ya’ni ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasini kuchaytiradi. Ayni vaqtda jin obrazi orqali xalq orasidagi diniy e’tiqodlar, tasavvufiy-falsafiy tafakkur va ezoterik bilimlar ham badiiy ifodalanadi. Natijada, jin obrazi o‘zbek xalq ertaklarida nafaqat diniy-ma’naviy tasavvurning timsoli, balki psixologik, ijtimoiy va axloqiy tushunchalarning badiiy modelini tashkil etadi. U orqali insonning ichki kurashi, tanlov erkinligi va ma’naviy o‘sishi singari g‘oyalar ramziy ifodasini topadi. Shu bois jin obrazini folklor asarlarida voqelik va mavhumlik, real va g‘ayritabiiy dunyo o‘rtasidagi badiiy ko‘prik sifatida baholash mumkin.

O‘zbek xalq ertaklarida turli g‘ayritabiiy kuchlarga ega obrazlar orqali xalqning qadimiy e’tiqodlari, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlari ifodalanadi. Bu obrazlar orasida jodugar obrazi ham muhim o‘rin egallaydi. Jodugar obrazi orqali insoniyatning sehrli kuchlarga bo‘lgan ishonchi, xavotiri va unga bo‘lgan munosabati aks ettiriladi. ***Jodugar*** tojik tilida «sehr» ma’nosini anglatadigan jodu otiga ***-gar*** qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan. U «sehrlash qobiliyatiga ega kishi» ma’nosini anglatadi. Odamlarga yoki tabiatga ta’sir qilish, g‘ayritabiiy hodisalar orqali bilim yoki hikmat olish uchun sehr (jodugarlik, sehr) bilan shug‘ullanadigan kishi. Sehrgarlikning paydo bo‘lishi ibtidoiy din shakllari ***animizm, fetishizm, ajdodlar ruhiga sig‘inish*** va boshqalar bilan bog‘liqdir. Sehrgarlik bilan shug‘ullangan ayolga nisbatan jodugar yoki sehrgar deyilgan. XV-XVIII asrlardagi sud hujjatlarida «jodugarlar ovi» deb ataladigan davrda, jodugarlar ta’qib qilingan va ular qattiq jazolangan. Jodugar yoki sehrgar deb topilgan kishi ustunga bog‘lab qo‘yilib tiriklayin yoqib yuborilgan. Bu hodisalar G‘arbiy Yevropa hamda Rossiyada davlatlarida sodir bo‘lgan. Ba’zi tadqiqotchilar «jodugar» so‘zi, «Kolyada» so‘zi bilan bir xil asosga ega, deb taxmin qilishadi. Sehrgar (folchi, fitnachi) so‘zining asl ma’nosi uni tabib (sehr bilan jodu qiladigan, sehrgar) so‘ziga yaqinlashtiradi[1]. Dastlab jodugar, sehrgar qadimgi butparastlik

[1] Шанский. Н.М. Школний этимологический словар руского язика. Произхождение слов 7-12, Стереотип. – М: Дрофа слов, 2004. -398.

ruhoniylarini anglatardi, ammo keyinchalik odamlar barcha sehrgarlarni, asosan sehrni yovuzlikka yo‘naltirib ishlatadiganlar deb atashni boshlaganlar. Islomda sehrgarlik bilan shug‘ullanish og‘ir gunoh sanalgan. Sehrli ertaklarda uchraydigan yalmog‘iz kampir bilan jodugarning farqi shundaki, yalmog‘iz kampir obrazida doim qari, xunuk kampirlar gavdalansa, jodugar qiyofasida yosh ayollar va hatto, qizlar ham tasvirlanadi. Ular qiyofalarini o‘zgartirgan holatda odamlarni turli xil g‘ayritabiiy kuchlar yordamida jodulashadi. O‘zbek xalq ertaklarida jodugar obrazi tasvirlangan ertaklar bir qanchadir. Masalan: *Jodugar otini o‘rmonga yashirib, o‘**zi bir musofir, puli, moli yo‘q odam bo‘lib** qizning oldiga kelibdi.* («Burgutlar» 87-b). Misoldan anglashiladiki, jodugar obrazining xalq ertaklarida faqat salbiy kuch emas, balki ayyorlik, niqoblanish, yolg‘on orqali maqsadga erishish kabi ijtimoiy-axloqiy tushunchalarni ifodalovchi murakkab timsol sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Jodugar obrazi ertaklarda nafaqat g‘ayritabiiy kuchlarning namoyandasi, balki sinov, aldov va saboq manbai sifatida ham qatnashadi.

O‘zbek xalq ertaklari va diniy-folkloristik rivoyatlarida ***Xizr*** obrazi eng ko‘p uchraydigan mifoantroponimlardan biri sifatida diqqatga sazovordir. Islom tafsirlarida Xizr shaxsiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, u «Allohning quli» degan nom bilan Qur’oni Karimning «Kahf» surasida tilga olingan. Ilmiy manbalarda Xizr odamlarga Allohga bo‘lgan e’tiqodni mustahkamlash, taqvo va sabr fazilatlarini targ‘ib etish maqsadida yuborilgan, abadiy hayot ato etilgan zohid siymosida talqin qilinadi. Rivoyatlarga ko‘ra, u «obi hayot» ichgan va umri boqiy bo‘lgan zotlardan hisoblanadi. Xalq tasavvurida Xizrga xos antropologik va semiotik belgilar mavjud, masalan, *o‘ng qo‘l bosh barmog‘ining suyaksiz bo‘lishi, nogahoniy ko‘rinishi va darhol g‘oyib bo‘lishi* uning ilohiylik timsoli sifatida shakllangan. Shuningdek, u turli ko‘rinishlarda: chol, suv tashuvchi yoki musofir qiyofasida namoyon bo‘lishi mumkin. Xalq rivoyatlarida Xizr doimo harakatda bo‘lgan, ***osmonda uchuvchi, orollarda yashovchi, dunyo bo‘ylab kezuvchi*** va ***har yili haj amalini ado etuvchi*** zot sifatida tasvirlanadi. Rivoyatlarda u har juma kuni Makka, Madina va Quddus shaharlaridagi muqaddas masjidlarda namoz o‘qishi bilan bog‘lanadi. Tasavvuf an’analarida esa Xizr alohida maqomga ega bo‘lib, avliyolar pirining ramzi sifatida talqin etiladi. U, ayniqsa, sufiylikda yo‘l ko‘rsatuvchi, ruhiy yetuklikka olib boruvchi maxfiy rahbar, «qutb» maqomidagi siymoga tenglashtiriladi. Shu bois Xizr obrazi o‘zbek og‘zaki an’analarida ham diniy, ham axloqiy-ma’naviy g‘oyalarning timsoli sifatida xizmat qiladi. Jumladan, xalq ertaklarida Xizr insonlarga yordam beruvchi, mushkulni oson qiluvchi, hojatbaror obraz sifatida gavdalanadi. Ertak qahramonlarining boshiga ish tushganda birdan paydo bo‘lib, muammolarini hal qiladi hamda ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Bu kabi obrazlarning yaratilishida, albatta, xalqning orzu-umidlari, boylik va davlatga tezda erishish istagi, muammoli vaziyatlarni hal bo‘lishidagi umid sabab bo‘lgan. Bu kabi muammolarni hal qiladigan kishi haqidagi orzular og‘izdan og‘izga o‘tib, ertak, matal, maqol, doston va shu kabi xalq og‘zaki ijodida saqlanib kelgan. Keyinchalik u ommalashib, asar qahramonlariga ko‘chgan. Xizr obrazi o‘zbek xalq ertaklarida yaxshilik timsoli, ertak qahramonlariga yordam berib, ularga kuch-quvvat beradigan personaj sifatida tasvirlangan. Xususan, «Hasan va Hurliqo» ertagida Xizr bobo xuddi yuqoridagi vazifalarini bajaradi. Qiyin vaziyatga tushib qolgan Hurliqoga yordam beradi va uning baxtli bo‘lishiga hissa qo‘shadi: *Shu payt Xizr bobo Hurliqoning oltin kokillio‘g‘lini va akasi kesib tashlagan ikki qo‘lini olib kelib, uni uyg‘otdi. «Tur qizim qimmatli narsalaringni ol» debdi.* («Hasan va Hurliqo» 60-b.) «Suv qizi» ertagida ham Xizr bobo qiyinchilikka duch kelgan bosh qahramonga qirq kun ibodat qilib Xudoga iltijo qilgan uchun, bir zumda paydo bo‘lib, mushkulini osonlashtiradi: *Qirqinchi kuni kechqurun bir chashma bo‘yida o‘tirgan ekan, Xizr bobo kelib qolibdi.* («Suv qizi» 50-b.)

O‘zbek xalq ertaklari xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy-ma’naviy qarashlari, diniy e’tiqodlari va axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi og‘zaki poetik janrlardan biridir. Ertaklarda xalqning e’tiqodiy timsollari, diniy shaxslar va tarixiy obrazlari badiiy generalizatsiya orqali personajga aylantiriladi. Mana shunday personajlardan biri Hazrat Ali obrazidir. ***Hazrat Ali*** siymosi o‘zbek og‘zaki ijodida ko‘pincha ***mardlik, adolat, himoyachilik*** va ***imonning timsoli*** sifatida tasvirlanadi. Unga oid atributlar: qilich, miltiq, jasorat namunasi kabi belgilar orqali xalq ertaklarida epik qahramonning ruhiy-ma’naviy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday timsollar orqali ertaklarda diniy-mifologik tasavvurlar, tarixiy xotira va milliy o‘zlik anglanadi. Islomiy an’anada Hazrat Alining «Haydar» (ya’ni, sher) laqabi bilan atalishi uning jasorat, mardlik va adolat timsoli sifatida qabul qilinishiga sabab bo‘lgan. Bu obraz xalq og‘zaki ijodida, ayniqsa, o‘zbek xalq ertaklarida chuqur ildiz otgan poetik qahramonlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqi ongida Hazrat Ali siymosi faqat diniy emas, balki sotsiomadaniy qahramon sifatida ham shakllangan. Jumladan, yurtimiz hududlarida Hazrat Ali nomi bilan bog‘liq bir qator ziyoratgohlar, maqbaralar va afsonaviy joylar mavjud bo‘lib, bu holat xalq orasida ushbu siymoga bo‘lgan chuqur e’tiqod va ehtiromni ifodalaydi. Xalq orasida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan afsona, rivoyat va ertaklarda Hazrat Ali obrazining esga olinishi esa ushbu siymoning folklor tizimiga singib ketganligini anglatadi. Xususan, «Besh qiz» ertagida Hazrat Alining siymosi bevosita tilga olinmasa-da, u bilan bog‘liq atributiv unsur miltiq timsoli orqali ramziy tarzda eslanadi: «*Qo‘rqmasdan ichkariga kir. O‘ng tarafdagi xonada Hazrat Alidan qolgan bir*

miltiq o‘qi bilan osig‘liq turibdi». («Besh qiz», 94-b.) Ushbu fragmentda Hazrat Aliga mansub deb ko‘rsatilgan miltiq folklor poetikasida mardlik, himoyachilik va adolat timsoli sifatida anglashiladi. Bu detal voqea rivojiga kuchli semantik yuk beradi va ertak qahramonining jangovar kuch manbai sifatida talqin etiladi. Bu yerda biz xalq xotirasida Hazrat Ali nafaqat diniy arbob, balki mardlik va himoya kuchining personifikatsiyasi sifatida shakllanganini ko‘ramiz.

Sharq xalqlari og‘zaki ijodida afsonaviy qush ***Semurg‘*** obrazi o‘zining badiiy-falsafiy talqiniga ega. Bu obraz qadimiy mifologik tasavvurlar, insoniyatning erkinlik va najotga bo‘lgan intilishi, orzu-umidlarini ifodalovchi ramz sifatida shakllangan. Bu esa xalqning orzu-umidlarini eng ko‘p o‘zida mujassam etgan janr – ertak janrida o‘ziga xos holda namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalq ertaklarida Semurg‘ ko‘pincha bosh qahramonni og‘ir sinovlardan olib o‘tuvchi, unga madadkor bo‘luvchi sehrli qush sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu obraz orqali xalq ertaklarida ezgulik, najot, sadoqat va fidoyilik g‘oyalari badiiy talqinda ifodalanadi. Turkiy xalqlarda Semurg‘ning ***Humo, Anqo, Davlat qushi, Baxt qushi, Marqumomo, Kuntubulg‘on, Bulbuligo‘yo*** va boshqa variantlari bor. Boshqa mamlakatlarda ***Anka, Feniks, Humo, Garuda*** tarzida qo‘llaniladi. Semurg‘ *obrazi «Rustam», «Kenja botir», «Qahramon», «Oyinayi jahonoma»* kabi ertaklarda ertak kompozitsiyasiga jiddiy ta’sir o‘tkazuvchi, bosh personajlarga yordam beruvchi g‘ayritabiiy qahramon, fantastik yordamchi, qutqaruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shularga asoslanib, Semurg‘ obrazining ertaklardagi vazifalarini quyidagicha ko‘rsatishimiz mumkin:



3-rasm. **Semurg‘ obrazining ertaklardagi vaazifalari**

Ko‘rinib turganidek, semurg‘ obrazi qahramonning murakkab sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi, uni maqsad sari yetaklaydi va ko‘p hollarda yakuniy g‘alabaga erishishida vositachi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek xalq ertaklarida Semurg‘ obrazi qahramonlarni mushkul vaziyatlardan olib chiqadigan, yaxshilik qiluvchi personaj tarzida tasvirlangan. Masalan, *Semurg‘ yigitga: Ey, odamzod, mening bolalarimni o‘limdan qutqarib qolibsan. Tila tilagingni, -debdi. Yigit Semurg‘dan yer yuziga olib chiqib qo‘yishini so‘rabdi.* («Kenja botir va Semurg‘«)

Xulosa qilib aytganda, ertaklarda uchraydigan mifonimik va teonimik obrazlar xalqning diniy qarashlari, urf-odatlari, tafakkur tarzi asosida yuzga kelgan. Har bir onomastik birlik xalq hayotida o‘ziga xos o‘ringa ega va bu birliklar asosida ertaklarda xalqning o‘y-xayollari,, orzu-umidlari haqiqatga aylanadi. Bunday mifonimik va teonimik birliklarning shakllanishi va avloddan avlodga o‘tishida esa ertaklarning o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Resume. Maqolada o‘zbek xalq ertaklarida uchraydigan mifonim, teonim birliklarning leksik-semantik jihatlari, o‘rganilishi, obraz yaratish imkoniyatlari va bu obrazlar orqali xalqimizning mifologik olami, diniy e’tiqodi, dunyoqarishidagi o‘rni tahlil qilingan.

Resume. The article analyzes the lexical and semantic aspects of mythonyms, theonymic units found in Uzbek folk tales, their study, possibilities of image creation, and through these images, their role in the mythological world, religious beliefs, and worldview of our people.

Резюме. В статье анализируются лексико-семантические аспекты мифонимов и теонимов, встречающихся в узбекских народных сказках, их изучение, возможности создания образов и роль этих образов в мифологическом мире, религиозных верованиях и мировоззрении нашего народа.